RAKMATOV Erkin Togaymurodovich,

Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

ALOUDDIN ATTOR YETAKCHILIK FAOLIYATINING NAQSHBANDIYA RIVOJIDAGI AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ ЛИДЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АЛОУДДИНА АТТОРА В РАЗВИТИИ НАКШБАНДИЙСКОГО ОРДЕНА

THE IMPORTANCE OF ALOUDDIN ATTOR'S LEADERSHIP WORK IN THE DEVELOPMENT OF NAKSHBANDIA

Annotasiya: *Maqolada naqshbandiylik ta'limoti rivojida Alouddin Attorning yetakchilik faoliyati yoritilgan. Uning "mo'tadil irfon konsepsiya"si negizida shakllangan irfoniy-axloqiy qarashlarining yoshlar tarbiyasidagi o'rni, "pir-murid", "murshid-solik" an'analarining zamonaviy ustoz-shogird munosabatlarini tartibga solishda mavqei hamda ijtimoiy "murosasozlik", hamkorlik, tinchliksevarlik tamoyillarining konstruktiv ahamiyati ochib berilgan.*

***Kalit so`zlar:*** *Naqshbandiya, silsila, qo`lyozma, Alouddin Attor.*

Аннотация*. Алауддин Аттар, живший в XIV веке, сыграл ключевую роль в развитии Накшбандийского ордена. Его философско-этические взгляды, основанные на идеях "умеренной гностики", оказали глубокое влияние на формирование мировоззрения последователей ордена. Аттар подчеркивал важность внутреннего духовного совершенствования, сочетая его с активной социальной деятельностью. Его учение о "примирении" и "сотрудничестве" остается актуальным и сегодня, предлагая конструктивные подходы к решению межличностных и социальных конфликтов.*

Ключевые слова: *Накшбандия, силсила, рукопись, Алауддин Аттар.*

Abstract: *The article describes the leadership activities of Alauddin Attar in the development of Naqshbandi doctrine. The role of his philosophical and ethical views formed on the basis of the «moderate gnostic concept» in the education of young people, the position of the «pir-murid», «murshid-solik» traditions in the regulation of modern master-disciple relations, and the constructive importance of the principles of social "reconciliation", cooperation, peace-loving given.*

Keywords: *Naqshbandiya, silsila, manuscript, Alauddin Attar.*

KIRISH

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlaridan naqshbandiylik keng hudud bo'ylab yoyilgan silsilalardan biri hisoblanadi. Tariqat tarixiga e'tibor qaratilsa, naqshbandiylik ta'limoti Buxoroda shakllangan bo'lsa-da, keyingi davrlarda boshqa hududlarda yangidan-yangi markazlari vujudga kelganini ko'rish mumkin. Bunga tariqatning xalqchil ekani va yetti yoshdan yetmish yoshgacha tushunishi oson hamda amalda bajarishi yengil bo'lishi bilan asoslanishi mumkin.

ASOSIY QISM

Buxorodan keyin naqshbandiya yoyilgan markazlardan biri sifatida Chag'oniyonni tilga olish mumkin. Chag'oniyonda naqshbandiya ta'limotining keng yoyilishiga xizmat qilgan pir murshid Xoja Alouddin Attordir. Alisher Navoiyning yozishicha, Alouddin Attor Chag'oniyonga Bahouddin Naqshband vafotidan (1389-yil) so'ng kelib o'rnashib qolgan va tariqat ta'limini davom ettirgan. Agar Sayyid Sharif Jurjoniyning Samarqandga 1387-yilda kelganini hisobga olsak, Alouddin Attorning poytaxtdagi faoliyat yillari oydinlashadi. Alouddin Attorning chaqiruviga binoan Nizomiddin Xomush va Sayyid Sharif Jurjoniy Chag'oniyonga [3:88] boradilar. Alouddin Attor dargohida ham bu uch avliyoning ajib suhbatlari bo'lib o'tadi. Ular birgalikda hazrati Muhammad ibn Ali Hakim Termiziy mozorini ziyorat qiladilar.

 ISSN 2181-9572

Attorning Buxoroga borishi haqida “Rashahot”da, Chag‘aniyonga kelishi haqida esa Mavlono Ya‘qub Charxiyning “Risolai unsiya” (“Do‘stlik haqida risola”) asarida ma‘lumotlar bor. Alouddin Attor 1393-yilda [6:5] Bahouddin Naqshband qabrini ziyorat qilishga Buxoroga borganligi xususidagi qarashlar, Alouddin Attorning 1389-1393-yillar oralig‘ida Buxorodan Chag‘oniyonga kelganligi haqida ma‘lumot beradi.

Bahouddin Naqshband naqshbandiya ta‘limotni asoschisi bo‘lib, tariqatni keyingi bosqichlarda rivojlanish imkoniyatlarini yaratib berdi. Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy ilgari surgan ijtimoiy-ma‘naviy hayotni yangilashga qaratilgan irfoniy g‘oyalari asrlar davomida turli millat va xalqlarning ma‘naviy chanqog‘ini qondirib keldi.

XIV-XV asrlarda ijtimoiy-ma‘naviy hayotda tariqatlarning ta‘siri kuchli edi. Xususan, Naqshbandiya tariqatining xalqchil hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga yaqin g‘oyalari xalqni jipslashtirishga, hunarmandchilikning rivojlanishi uchun muhim ijtimoiy-mafkuraviy omil sifatida o‘z maqeiga ega edi. Tariqatning ijtimoiy kelib chiqishi, tabaqasi, tili va millatidan qat‘iy nazar Movarounnahr va Xuroson o‘lkalaridagi xalqlarni birlashtirdi. O‘zida insonparvarlik, ma‘rifatparvarlik, yakdillik, axloqiy poklik, beozorlik, bag‘rikenglik, halol mehnat qilish kabi yuksak g‘oyalarni jamlagan bu mo‘tadil tariqat oddiy fuqarodan tortib, podshohlarga qadar o‘z ta‘sirini ko‘rsata olgan edi.

Amir Temur va temuriy shahzodalarning Naqshbandiya tariqatiga ixlosi va Bahouddin Naqshband hamda shogirdlariga ishonchi ushbu tariqatning keng targ‘ib bo‘lishiga imkon yaratgan edi. Temur tuzuklaridagi “Yana tajribamdan ko‘rdimki, agar davlat dinu tartib asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘xsharkim, uni ko‘rgan har bir kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Shuning uchun ham men o‘z saltanatim binosini dini islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar uchun yo‘l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko‘priklar qurishni buyurdim” [5:44], degan. Ushbu fikrlar temuriylar salatanati uchun muhim tamoyil sifatida amal qilgani yuqoridagi fikrimizni dalilaydi. Naqshbandiya tariqati tarbiya va poklanishga qaratilgan so‘fiyona tajribalar inson kamolotining bekamu-ko‘stligini, ruhiy-ma‘naviy yuksalish yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Bahouddin Naqshband o‘z shogirdlarini (muridlarini) shu darajada sodiq qilib tayyorladiki, ular ushbu tariqat g‘oyalarining umrboqiyligiga munosib hissa qo‘shdilar.

Xoja Bahouddin Naqshbanddan so‘ng tariqat ikki yo‘nalishga ajraldi. Birinchi yo‘nalish Xoja Alouddin Attor orqali Xoja Ya‘qub Charxiyga, undan Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiyga borib taqalsa, ikkinchi yo‘nalish Xoja Muhammad Porso orqali uning o‘g‘li – Abu Nasr Porsoga, undan Nizomiddin Xomushga, undan esa Hazrati Jomiyning murshidi – Shayx Sa‘diddin Koshg‘ariyga yetib [10:128], keyingi davrlarda ahroriya, xilvatiya, kumushxonaviya va mujaddidiya kabi bir qancha tarmoqlarlarga bo‘lindi.

Alouddin Attor ustozi Bahouddin Naqshbanddan tariqat ilmlarini chuqur o‘rgangan. Shariat tariqat, ma‘rifat darajalariga erishgan yirik murshid sifatida shakllangan. Uning dunyoqarashi avvalo, Buxoroning ilm va ma‘rifatga maskanlik muhiti, Buxoro madrasalaridagi diniy va dunyoviy ilmlar ayniqsa, Qur‘on, hadislardan olgan saboqlari g‘oyaviy asos sifatida o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Alouddin Attor shu ma‘noda umrining oxirigacha naqshbandiylik ta‘limoti sof e‘tiqoddagi ta‘limot ekanligini himoya qilishda va targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, Xoja Muhammad Porso va Alouddin Attor uning ma‘ruzalarini, hikmatli so‘zlarini yozib to‘plab yurgan. O‘tmishda yaratilgan “Hazrat Bahouddin Naqshband maqomotlari” ga kirgan barcha gaplar, ustozning fikrlari, uning dahosi xususidagi ko‘plab rivoyatlar

shu manbalardan olingan yoki ularga unga tayanib yozilganligini uqtiradi. Demak, bevosita Bahouddin Naqshbandning qudsiy suhbatlari, kalimalari, uning qarashlari asosida shakllangan dunyoqarash Naqshbandiya tariqatining rivojida keyinchalik ta‘limot darajasiga ko‘tarilishida Muhammad Porso va Alouddin Attor xizmatlari ahamiyati katta bo‘lgan.

Abulqosim ibn Muhammad ibn Mas‘ud Buxoriy o‘zining “Manoqibi va shamoili Hazrati Xoja Alouddin Attor” nomli asarida Alouddin Attorga qo‘yidagi ta‘riflarni bergan: “Shariat arbobi”, “Valiylar qutbi”, “Ahlullohning suyanchi”, “intiboh sohiblarining pokizasi”, “tariqat arboblarining sayyidi”, “Mutakallimlarning oxirgisi”, “Aloul Haq vad din” [11:54] deya e‘tirof etilgan. Demak, Alouddin Attor naqshbandiya sulukida ega bo‘lgan unvonlari ham uning irfon sohibi din ilmining bilimdoni, ulug‘ ustoz ekanligini anglatadi. Unga berilgan unvonlardan biri “mutakkallimlar oxirgisi” uning kalom ilmida ham benazir bo‘lganligini bildiradi.

Ushbu tanishuv allomada tasavvuf ta‘limotiga alohida ahamiyat bilan qarash hissini uyg‘otdi va u xojagon-naqshbandiya tariqatini qabul qildi. Xoja Ahrorning tog‘asi Ibrohim Shoshiy: “mabodiyi holda Sayyid Sharif (erdilar musoxib Samarkandda bilan Jurjoniy istifoda mutadovila va mutatovila ulumi undan madrasasida etdilar.) Va olarning ittifoqlari bilan Xoja Alouddin Attor mulozamatlarig‘a borib, ul majlisi oliyda bu nisbati sharifni istifoza etdilar.

Alouddin Attor Bahouddin Naqshbanddan keyin naqshbandiya ta‘limotining rahbariga aylandi va Bahouddin Naqshband shogirdlariga naqshbandiyona kamolot yo‘li haqida ta‘lim bera boshladi. Bahouddin Naqshband manbalarda yozishicha o‘zidan keyin Muhammad Porsoni jamoani boshqaradi degan fikrni aytgan, ammo Bahouddinning vafotidan keyin Muhammad Parso Alouddin Attorga jamoani rahbari bo‘lishga munosibligini tan olgan. Alouddin Attor Buxorodagi naqshbandiya jamoasini Muhammad Parsoga topshirib o‘zi Chag‘oniyonga ketadi va Naqshbandiya ta‘limotini shu hududda rivojlantiradi. Chag‘oniyonda Alouddin Attor Yaqubi Charxiyni chaqirtirib uning tarbiyasini oxiriga yetkazadi. Alouddin Attor “Silsilai sharifda” 16-halqa piri bo‘lgan ustozi Bahouddin Naqshbanddan keyin 17-halqada turishining o‘zi ham uning Naqshbanddan keyin bo‘ ta‘limotni boshqarganini isbotlaydi. “Silsilai sharif”da Alouddin Attordan keyin 18-halqa piri sifatida Yaqubi Charxiy urin olgan. Bu ko‘rsatadiki Alouddin Attor ustozi Bahouddin Naqshband o‘gitlariga to‘la amal qilib Yaqubi Charxiyga naqshbandiya ta‘limoti va tariqatini ham nazariy ham amaliy mukammal o‘rgatgan. Bu esa birinchidan Alouddin Attorning ustoziga ehtiromi va uning o‘gitini tula bajarganligi ko‘rsatmoqda. Ikkinchidan Yaqubi Charxiyga Naqshbandiyani mukammal o‘rgatib unga irshod berganligini isbotlamoqda.

Mavlono Ya‘qub Charxiy: “Hazrati Eshon menga Buxorodan ketar chog‘imda hazrat Alouddin Attorning yoniga yuborib, u kishiga murid tushishimga ishora qilgan edilar” [6:137], deydi. Charxiy ma‘lumotidan tariqat silsilasida Bahouddin Naqshbanddan keyin irshod masnadida haqli ravishda Alouddin Attor turganligi va u kishidan so‘ng Yaqubi Charxiy masnadga o‘tirganligini ko‘rsatadi.

Manbalardan biri bo‘lgan Muhammad Doroshukuhning “Safinatul avliyo” va Tohir Eshonning “Tazkirai naqshbandiya” asarida Ya‘qub Charxiyni Bahouddin Naqshbanddan keyingi ustozi Alouddin Attor ekanligi haqida shunday ma‘lumot berilgan: “Hazrat Xoja Bahouddin Naqshband amri va ishorati bilan Alouddin Attor tobeligida bo‘lgan va ularning tarbiyalariga o‘tgan. Bahouddin Naqshbanddan keyin Mavlono Ya‘qub Charxiy mashoyixlar ichida sevimlisi bo‘lgan. U as‘hoblar darajasida bo‘lgani uchun, Xoja uni do‘stlaridan biriga aylantirdi. U katta ishonch bilan sohib bo‘lib, ilmda haqiqatlar dengiziga aylandi” [9:137]. Demak Yaqubi Charxiy kamolotga yetishida Alouddin Attorning xizmatlari kattadir. Shuningdek Tohir Eshon Yaqubi Charxiy haqida qo‘yidagi ma‘lumotni bergan: “Ruxsati avval zi

 ISSN 2181-9572

Xoja Bahouddin, duvvumashro bikard Alouddin", ya'ni "Avval ruxsatni Xoja Bahouddindan, keyin Alouddindan olgan" [9:137]. Bu ma'lumot yuqorida bildirilgan fikrlarni yanada to'ldiradi. Bu qisqa satrlarda Mavlono Ya'qub Charxiyning tariqat yo'liga kirishiga, avvalo, Bahouddin Naqshbanddan ta'lim-tarbiya topgani, keyin irshod ruxsatini-ma'naviy kamol topishi Alouddin Attor nomi bilan bog'liqligi tushuniladi.

Alouddin Attorning murshid sifatida tarbiyalagan shogirdlardan biri Sayid Sharif Jurjoniydir (1339-1413-yy). U Temuriylar davrida yashagan kalom ilmi ulamosi bo'lgan. Temuriylar davrini o'rgangan olim M. Buzrukov tadqiqotlarida yozilishicha, Sayid Sharif Jurjoniy Samarqandda yashagan vaqtda Bahouddin Naqshbanddan so'ng tariqatni boshqargan Alouddin Attor bilan tanishadi. Buzrukov Ibrohim Shoshiyning so'zlariga tayanib shunday ma'lumotni keltirgan: "Egu Temur madrasasida bo'lur edim. Sayyid Sharif ham ul joyda bo'lur erdilar. Sovuq qishda vaqti sahar piyoda kafsh bila Alouddin Attor mulozamatlarig'a sohibi "Hidoya"ning avlodi madrasasiga kelur erdilar. Mani ham hamroh qilur erdilar. Kub o'lturduk, to fursatekim, kirmaklik ijozati bo'lur erdi" [3:135]. Bu hikoya Xoja Ahrorga bag'ishlangan barcha maqomotlarda uchraydi.

Bu ma'lumot Samarqand ilmiy-ma'naviy muhitini yoritishda uch jihatdan o'ta muhim hisoblanadi. Birinchisi shuki, undan Bahouddin Naqshbandning eng yetuk shogirdi, uning vafotidan so'ng tariqatga rahbarlik qilgan Alouddin Attorning Samarqandda yashaganini anglash mumkin. Lekin bu jihat unga bag'ishlangan tadqiqotlarda yoritilmagan. Ikkinchisi, xojagon-naqshbandiya tariqatining rahbari bo'lgan Alouddin Attor Sohibqironning poytaxtidagi sohibi "Hidoya" avlodining madrasasida dars berganligi. Uchinchi jihati, Amir Temurning eng yirik olimi, uning majlislarida eng yuqori o'rinda o'tiradigan olimning Alouddin Attor huzuriga borganda, ijozat bermaguncha uning huzuriga kirmasdan kutib turishidir. Bu ham tasavvuf vakillarining o'sha davr jamiyatida tutgan nufuzini ko'rsatadi [3:88]. Mirzokejabekning Buyuk Termiziylar asarida Alouddin Attor haqidagi Sayid Sharif Jurjoniyning qo'yidagi e'tirofini keltirgan: "Alouddin Attorni suhbatga yetmagunumcha Allohni tanimadim". Demak Sayid Sharif Jurjoniy kamolga yetishida Alouddin Attorning xizmati katta bo'lgan.

Xoja Alouddin Attor sag'anasi XV asrga oid bo'lib, avval ziyoratgohda faqat Valiyning qabri va o'g'li, nabirasining qabri bo'lgan, keyinchalik bu joy katta ziyoratgohga aylangan. Ziyoratgoh maydoni 40 gektardan kattaroqdir. Alouddin Attor sag'anasi yonida yirik ikkita masjid bo'lib Qurbon va Ruza hayitlarida odamlarning ko'pligidan atrof ot-ulovlarga to'lgan. Sayid Otaliq madrasasi ro'parasida ulkan xonaqoh barpo etilgan. XX asrning 30-yillari oxirida Said otaliq madrasasidan tashqari xonaqoh va maqbara yonidagi yirik ikkala masjidlar buzib tashlanadi. Alouddin Attor maqbarasi ochiq osmon ostida to'rtburchak shaklida pishiq g'ishtdan qurilgan katta sag'ana bo'lgan. Olimlarning taxmin qilishicha, sag'ananing ichida Alouddin Attorning turmush o'rtog'i va boshqa kishining ham qabri bo'lishi mumkin. Mustaqillik yillarida aziz-avliyolarning ilmiy merosi, ziyoratgohlariga katta e'tibor qaratilganligi munosabati bilan 2000-yil Denov tumani hokimi va mahalliy aholi tomonidan hashar yo'li bilan qabr yoniga maqbara qurilgan. 2019-2020-yillarda mahalliy homiylar tomonidan qabr ustiga pishiq g'ishtdan kvadrat shaklda usti kulohi gumbaz bilan yopilgan hashamatli yangi maqbara qurilgan. Qabr maqbaraning yerto'la qismiga olinib, tepasiga ramziy qabr qo'yilgan. Maqbaraga ganchkorlik usulida juda chiroyli bezaklar berilgan.

XULOSA

Umuman olganda, Alouddin Attorning yetakchilik faoliyatining naqshbandiya rivojidagi o'rni ustozi vafotida keyin shogirdlarni jamlab ularga yo'lboshchilik asnosida tariqat tayanchi bo'lgan manbalarning vujudga kelishida boshchilik qildi. Tariqat tamoyillarini birma-bar

tasnif etib, tilmochlik vositasi natijasida suluk odob-axloq qoidalari jamlangan qonun-qoidlar to‘plami shakllandi. Tariqatning yangi markaziga asos soldi va bu an‘ana keyingi davrlarda ham davom etishiga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmon Jomiy. Nafahotul uns. Qo‘lyozma. IBXITM fondi. inv № 345.

2. Abdul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Bahouddin Balogardon (Manoqib) – Toshkent: Yozuvchi, 1993.

3. Buzrukov M.J. Temuriylar davri Samarqand ilmiy-ma’naviy muhitida tasavvuf namoyandalarining tutgan o‘rni (XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmi). Tarix fan.b.f.doktori ilmiy darjasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Samarqand: 2022.

4. Bo‘riyev O. Xoja Alouddin Attor. – Toshkent: Respublika madaniyat Vazirligi Ma’naviy madaniyat targ‘ibot markazi. 1994. – 23 b.

5. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. Mavlono Yaqubi Charxiy. Risolai unsiya. M.Hasaniy, Razzoqova M. tarjimasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

7. Navro‘zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta’limoti va barkamol inson tarbiyasi: Falsafa fan. dok. ... dis. – Toshkent: 2002. – 289 b.

8. Navro‘zova G.N. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi –Toshkent: Fan, 2021. – 190 b.

9. Tohir Eshon. Tazkirai naqshbandiya. O‘zR FA SHI qo‘lyozmasi, № 855/I.

10. Faxriddin Ali Safi. Rashohati aynul-hayot (“Obihayot tomchilari”) M.Hasaniy, B. Umrzoqov. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2004. – 536 b.

11. Xoja Muhammad Porso. “Maqomoti Xoja Alouddin Attor”. O‘zR FASHI. inv № 11399.

12. Hamidjon Homidiy. Tasavvuv allomalari. – Toshkent: Sharq, 2004. – 208 b.

 ISSN 2181-9572